

**JALOLIDDIN MANGUBERDI XALQNING MARD O‘G‘LONI VA VATAN
XIMOYACHISI**

Kosimov Maxammatali Xakimovich,
Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jasur sarkarda, tarix zarvarag‘iga munosib iz qoldirgan ona yurt himoyachisi mardlik, qahramonlik, yurtparvarlik, ozodlik kabi fazilatlarni o‘zida shakllantirgan Sulton Jaloliddinning jasorati haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: mardlik, qahramonlik, yurtparvarlik, ozodlik, mo‘g‘il, qipchoq, suvoriy, qal‘a, elchi.

Introduction

Jaloliddin Manguberdi – ona yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spetamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda o‘chmas iz qoldirgan milliy qahramonidir.

Jaloliddin Manguberdi – bor-yo‘g‘i o‘ttiz ikki yillik qisqa hayoti davomida elu yurt uchun, xalq ozodligi uchun so‘nmas xizmat qilishga ulgurgan ulug‘ ajdodimizdir... “Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O‘zbekistonning faxri g‘ururidir.

U bizning ozodligimizga, istiqbolimizga, tajovuz qilmoqchi bo‘lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirlikimizning tasdig‘i va timsolidir”- degan edi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov [2].

Inson faqat bugungi kun bilangina yashamaydi, balki uning qalbida ertaning umidi ham bo‘y ko‘rsatishi tabiiy. Aslida bugun ham, erta ham o‘tmishdan andoza oladi. Shunday ekan, biz ertaning umidida yashayotganlar oladigan andozalarimizning tarixini yaxshi bilamizmi? Bizlarga o‘rnak bo‘luvchi, bizlarni ulug‘vor ishlarga, yaratuvchiliklarga undovchi ajdodlarimizni yaxshi bilamizmi? Bu manguilik savolga har bir avlod o‘zicha javob axtarmog‘i lozim.

Tarixda buyuk ishlari, mardliklari, qahramonligi, yurtparvarligi, ozodlik uchun kurashi bilan lol qoldirgan Jaloliddin Manguberdi taqdirini yaxshi bilish ham ana shu savolga izlanayotgan javoblardan biridir.

Mo‘g‘ullarni yurak uynog‘iga solgan, to‘satdan ularga kuchli zarbalar bergan, shiddat bilan jang maydoniga suron solib kiruvchi, dushman to‘pini tarqatgan bobokalonimiz Manguberding og‘ir bosiqiligiga hayron qolasan kishi. Jaloliddin Manguberdiga mo‘g‘ullarga kelin bo‘lib tushgan singlisidan xat kelgan va u o‘z maktubida urushni oxiriga yetkaza olsa urushish, bo‘lmasa sulh tuzish taklifi berganligiga qaramasdan, bu g‘oyibona iltimosni ham e‘tiborsiz qoldirilgan. Ha, Jaloliddin Manguberdi tom ma‘nodagi Turon qoplani edi. U o‘z davrida mo‘g‘ullar bilan shartlashib, rohat-farog‘atda yashashi mumkin edi, ammo u shu ona yurt farzandi sifatida g‘ururiga tayanib dushmanga kuchli zarbalar berdi. Anushteginiylarning

aqlu zako ummonidan bahramand bo'lgan Jaloliddin Manguberdi Muhammad Xorazmshoh arslonlari orasida sher edi. U bir zarba bilan o'ljasini yengib, uni yo'qliq qa'riga uloqtira olardi. Chor tarafi toshdan qat ko'targan osmono'par minoralar ustida tungi qo'riqchi lashkarlar kuzatuv bilan mashg'ul, Valiyon qal'asini muhofaza qilishar edi. Tong otib, qorong'uga yakun yasaldi. Qo'riqchi sherigini turtub – og'am, boq! Bir ko'lanka ko'ringanday dedi. Sherigi minoradan turib olislarga boqdi. -Gaping chin! Ular tipirchilab qolishib boyo'g'lining tilida tinmay nola qildi. Bu jangovar hushyorlik edi. Barcha oyoqqa qalqdi. Juda olislarda chingiziy galalarining sharpasi ko'rindi.

Xorazmshoh Jaloliddinning aynan ma'naviy dahosi va ruhiy quvvati lashkarlarning qahramon erkiga jasorat va shiddat bag'ishlab turardi. – Qal'aning chor tarafida gulxanlar yoqilsin!- amr etdi sarkarda. Bu amal qal'a mudofaaga shay turganidan dalolat berar edi. Sarkarda og'abegiga tayinladi:-Avvalinda Xaros mudofaaga turgay. To'plar jangga shaylansin! Qolganlar menim buyrug'imga shay tursunlar. Mo'g'ullar zalvorli qadamlari hamda nog'oralarning tahlikali sadolar ostida hayqirib, Valiyon qal'asi tomon yaqinlashib keldi. Ular qal'aning chor tarafini o'rab olishdi. Og'abegi Eldegiz sarkarda Jaloliddinning buyrug'ini kutmoqda edi. Nihoyat, chingiziy galalari jangga kirishdi. –Haros shay turing! - Birozdan so'ng amr etdi.-To'plar otilsin! Tinim bilmay to'plar otildi. Qal'a atrofi beomon jang maydoniga aylandi. Ikki tomondan to'plar otila boshlandi. Xuroson zamini to'plar ovozidan larzaga keldi. Qurbonlar ko'p, yaralanganlar esa sanoqsiz edi. Kun shomga og'ar mahal g'animlar shashti pasayib qoldi. Tun atrofni qora chimmati bilan o'ragan payt ular bir yo'la tinchib qolishdi. Mo'g'ullar qal'a atrofidagi yalanglikda gulxan yoqib, o'tov tikishdi va ertangi jangga kuch to'plamoq uchun uyquga ketishdi. Valiyon qal'asi uchun olib borilayotgan jang chindan beomon kechdi va ikki tomon lashkarlarini holdan toydirdi. Sulton favqulodda harbiy mashvarat chaqirib, jang tadbiri hamda muhim choralar yuzasidan kengashib oldi. Sarkarda lashkarlarida kelajakka ishonch umid bilan boqmoq darkorligini uqtirdi. Jang maydonida tezkor harakat qilmoq muhim edi. G'animlar hujumini daf etib, jangovar hamla qo'llash lozimligini tushunib yetgan sarkarda lashkarboshilarga yuzlandi: - kuchingizni bir mushtingizga yig'ing, tig'ni qo'ldan boy bermang. Illo, ertangi savash beomon kechishi muqarrardir. Avvalinda tag'in xaroslar qal'a mudofasida bo'lgay, alarni yordamchi qanot avang'or qo'llab turgay. Piyodalar qo'liga oq bayroqlar tutilsin.

Alar belgi beruvchi kuch. Alarning ishorasi bul urushda chunon ahamiyatga egakim zaxiradagi manim xos lashkarlarim alarning ishoralariga qarab harakatda bo'lgaylar. Illo, mushtimizdagi kuch yoppasiga tashlanur. Xudo bizni qo'llasin! Magar o'zi qo'llasa, bir zarbimiz bilan g'animlarni qal'a atrofidan quvib, pistirmaga tushurgaymiz. Bu amr barchani oyoqqa turg'azdi. Mo'g'ullarning bu galgi xuruji chunon shiddatli edi. Bu xuruj Jaloliddinning qalqoni bilan to'sildi. Sulton qo'shini mo'g'ullar ustiga hujumga o'tdi. Valiyon darvozasi ochilib, qo'shin oldiga siljidi. To'g'ridan Haros jangga kirishdi. G'animlar ko'ngliga qutqu solib hayqirgan lashkarlar tobora oldinga harakat qildilar. Manjaniqlardan otilgan to'plar otashi yog'iyini o'z domiga tortdi. Dosh bera olmagan mo'g'ullar noiloj ortiga chekina boshladi. Sarkarda amr etdi. – Endi yog'iyning o'ng qanotiga avang'or hujumga o'tsin! – Olg'a! Olg'a!

Olg'a. Sarkarda yog'iyning chap qanotiga mang'uloyni tashladi. Mang'uloy lashkarboshisi Aminimal Mulk sarbozlariga qarab hayqirdi: - Og'alar! Oldinga olg'a! – Olg'a, olg'a! Yakunida

Jaloliddin boshliq xos lashkarlar shiddat bilan jangga kirishdi. Bu jang chindan beomon kechdi. Jaloliddin lashkarlari mo'g'ullarga qaqshatkich zarba berdi. Qal'a atrofidan quvilgan chingiziy bosqinchilari butkul yanchib tashlandi.



Chindan u xuddi ot choptirib, Movarounnahrda shiddat bilan kirgan Qutaybani eslatar edi. Mana shu shiddatli yurishi bilan u Chingizxonni tahlikaga soldi. Zafar quchgan Jaloliddin tig'ni baland ko'tardi. Bu g'alaba g'anim ustidan qozonilgan yirik g'alaba edi. Jaloliddinning zafaridan xabar topgan Chingizxon lashkarboshilariga qahrini sochdi.- Qirq besh ming lashkar aning ortidan jo'natilsin deb o'zining eng sinalgan sarkardasi Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shinini Jaloliddinga qarshi yubordi. Ikki yirik qo'shin Afg'onistonning Parvona dashtida 1221 yil yozida to'qnashadi. Ushbu jangda Sulton Jaloliddin qo'shinlari g'alaba qozondi. Parvona dashtida Jaloliddinning o'zi Shiki Xutuxu no'yon qo'shini o'rtasiga otilib kirib, uning harbiy tartiblarini buzib yuborgan va bayroqlarini otlarning tuyuqlari ostida poymol qilgan. Jangda katta talofat ko'rgan Shiki Xutuxu no'yon qolgan qo'shinlari bilan Chingizxonning Tolikondagi qarorgohiga qochgan. Shunday qilib, Chingizxon ro'baro'sidagi raqibi uning o'ziga munosib ekanligini his etadi va u endi qat'iy, hal qiluvchi jangga hozirlik ko'rishning vaqti kelganini sezadi.

Jaloliddinning Parvonadagi ulkan g'alabasining eng e'tiborli tomonlardan biri shunda ediki, bir qancha shahar aholisi bu g'alabadan xabar topadi, undan ruhanib, mo'g'ullarga qarshi isyon ko'taradi, ularning noiblarini o'ldiradi. Ayni vaqtda Parvona g'alabasi Jaloliddinga katta tashvishlar keltirishini u xayoliga ham keltirmagandi. Bu jangda qo'lga tushgan o'ljalarni bo'lib olish chog'ida Jaloliddin lashkarboshilari o'rtasida o'ljaga olingan zotdor bir arab otni talashib qattiq nizo chiqadi. Jaloliddin ularni murosaga keltira olmaydi.

Nizo tufayli lashkarboshilar Sayfiddin Ag'roq, Aminlar har biri 20 mingdan ortiq lashkar bilan arazlab ketib qoladi. Bu mudhish holatdan Jaloliddinning harbiy kuchi keskin zaiflashib o'z qo'shini bilan Hindistonga o'tib ketish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi Lekin Sind daryosi bo'yida kemalar tayyorlanayotgan bir paytda unga qarshi shaxsan o'zi astoydil otlangan Chingizxon yetib keladi.

Kuchlar nisbati Chingizxon foydasiga keskin farq qilar edi. Mag'lub bo'lishiga aqli yetgan Jaloliddin dushman qo'lga asir olinib, haqoratlanmasligi uchun onasi, xotini va qizlarini

o'zlarining xohish-irodasi bilan daryoga cho'ktirishga farmon beradi. Chingizxon qo'shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o'tishga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho'l hozirda ham cho'li Jaloliy deb ataladi). Chingizxon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!", degan edi. 1222-yil Chingizxon Jaloliddin Manguberdi izidan To'rbay To'qshin va Bola no'yonni 20 minglik qo'shin bilan jo'natadi. Lekin ular Mo'ltonga qadar borib, shaharni ololmay, jazirama issiqqa dosh berolmay qaytishadi. Jaloliddin Manguberdi o'ziga qarshi mo'g'ul qo'shinlari jo'natilgani xabarini Parosravar qal'asini olgandan so'ng eshitgan. Jaloliddin Manguberdi Mo'ltom tomon yo'l olib Qubacha mulklaridan Uchcha, Sadusan, Xatisor, Deval va Damrillarni qamal qiladi, qo'shini uchun tuyalar zarurligi tufayli Gujarat viloyati markazi Nahrvalga Xosxon boshchiligida qo'shin jo'natadi. Shamsuddin Eltutmish Jaloliddin Manguberdi ustiga katta qo'shin (30 ming otliq, 100 ming piyoda, 300 ta fil) tortadi.

Jaloliddin Manguberdi mardonavorlik bilan raqibiga qarshi chiqadi. Jaloliddin Manguberdining O'zbek Toy Jahon Pahlavon qo'mondonligi ostidagi ilg'ori Eltutmish ilg'ori bilan to'qnashib raqibidan ustin keladi. Eltutmish Jaloliddin Manguberdi huzuriga elchisini yuborib sulh so'raydi. Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb qiladi, unga tobe hind mulklarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. Jaloliddin Manguberdining lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq Toysilar xiyonat qilib Eltutmish tomoniga o'tganlar. Qiyin vaziyatdan qutulish uchun Jaloliddin Manguberdi harbiy kengash chaqirgan. Amirlarning ko'pchiligi Iroq tomon yurish qilib, uni G'iyosiddin Pirshohdan tortib olishni taklif qiladi. Iroqda siyosiy parokandalik hukm surardi. Iroq tomon ketishga qaror qilinadi. Jaloliddin Manguberdi o'zining Hindistonda zabt etgan mulklariga O'zbek Toy Jahon Pahlavoni, G'ur va G'azni viloyatlariga Hasan Qarluqni noib sifatida qoldirib, Iroqqa yo'l olgan. Cho'lu biyobonlarni kesib o'tishda Jaloliddin Manguberdining ko'p jangchilari nobud bo'lgan, nihoyat u to'rt ming jangchisi bilan Kirmonga yetib kelgan.

G'iyosiddin Pirshohning Kirmondagi noibi Baroq hojib Jaloliddin Manguberdiga tobelik izhor qiladi. Shundan so'ng Jaloliddin Manguberdi Fors viloyati markazi Sherozga kelgan. Fors hokimi otabek Sa'd ibn Zangiy va Yazd hokimi otabek Alouddavla ibn To'g'onshoh unga tobelik bildirishadi. Jaloliddin Manguberdi Isfahonga kelganda aholi uni katta tantana bilan kutib olib, qo'shinini qurol-aslaha bilan ta'minlaydi. Bu hol G'iyosiddin Pirshohga yoqmaydi, u akasiga qarshi 30 ming otliq qo'shin bilan yo'lga chiqadi. Biroq Jaloliddin Manguberdi unga sovg'a- salomlar bilan Miroxur Odekni elchi sifatida jo'natgan va o'zaro nizoni tinchlik bilan hal etgan.

1225-yil Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonga yurish qiladi. So'ng Bag'dodga qarshi yurishga hozirlik ko'radi. Xalifa Nosirgacha elchi jo'natib, mog'ullarga qarshi birlashishga chaqiradi. Bunga javoban Xalifa Jaloliddin Manguberdiga qarshi o'zining mamluki amir Jamoliddin Qushtemir boshliq 20 minglik qo'shin jo'natadi. Basra yaqinidagi jangda Xalifa qo'shinlari tor-mor keltirildi. Xalifa Bag'dod mudofaasi bilan mashg'ul bo'ladi. Jaloliddin Manguberdi Bag'dod atrofida 12 kun turgach, Ozarbayjon tomon ketadi.

Ozarbayjon va Arron otabegi O'zbek ichkilik, maishatga berilib davlat ishlarini o'z holiga tashlab qo'ygan edi, davlatni amalda uning xotini Malika xotun boshqarardi. 1225-yil mayda Jaloliddin Manguberdi Marog'a shahrini jangsiz qo'lga kiritadi.



1230-yil 10-avgustda Arzinjon yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag'lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberding kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog'a, Tabrizni egallab (1231) Jaloliddin Manguberдини ta'qib etishgan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo'g'ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberding oz sonli qo'shinini tor-mor keltirdilar, Jaloliddin Manguberдини o'zi esa ta'qibdan qutulib Qurdiston tog'lariga chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'lga asir tushib, fojiali ravishda halok bo'lgan.

Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kotibi, tarixchi Nasaviy shunday yozadi: "Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so'zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko'ngil, to'g'ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa jilmayib qo'yardi. U adolatsizliklarni yomon ko'rardi. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi".

O'zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" qaror qabul qildi (1998). Qarorga ko'ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha, maydon, jamoa korxonalarini va boshqalarga uning nomi qo'yildi [4].

Xulosa o'rnida, XIII-XIV asrning I-yarmi vatanimiz tarixida eng og'ir davr bo'ldi. Chunki Mo'g'ullar istilosi va zulmi o'lkamiz xalqlari hayotida og'ir iz qoldirdi. Mamlakatimiz hayoti taraqqiyotini bir necha o'n va yuz yillab orqaga surib yubordi, ammo uni to'xtatib qololmadi. Ozodlik, hurlik va mustaqillikka tashna bo'lgan avlodlarimiz mo'g'ullar zulmiga qarshi kurashdilar, va nihoyat mo'g'ul bosqinchilarini mamlakatimiz tuprog'idan uloqtirib tashladilar.

Bu ozodlik kurashi ulug' bobomiz Amir Temur faoliyati bilan chambarchas bog'liqligini biz yosh avlod hech qachon unutmashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulg'oziy "Shajarai turk". – T.: Cho'lpon, 1992. – 172 b.
2. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», – T.: Sharq, 1998. – 28 b.
3. Bayoniy M.Yu. "Shajarai Xorazmshohiy", – T.: 1994. – 116 b.
4. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.//Xalq so'zi, 1998, 21-oktyabr.